

# Psixodiagnostika sohasida axborot-kommunikatsiyaviy texnologiyalar va an'anaviy usullarni qo'llashning qiyosiy tahlili

Mamajonova Shaxzodaxon Yoqubjon qizi

Tashkent International University of Education

**Citation:** Mamajopnova Sh.Y. Comparative analysis of the application of information and communication technologies and traditional methods in the field of psychodiagnostics. Acta Education (2024) 1(2) 12–14. <https://doi.org/10.61587/3030-3141-2024-1-2-19-20>

**Corresponding authors:**

Mamajopnova Sh.Y.

[t448@tiue.uz](mailto:t448@tiue.uz)

**Annotatsiya.** Maqlada psixodiagnostika soxasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va amaliyatga tadbiq etish usullari haqida fikr yuritiladi. Barchamizga ma'lum, bugungi kunda hayotimizning har bir jabhasida zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter dasturlaridan foydalanish zaruratga aylanib bormoqda. Mana shu talablardan kelib chiqib, ushbu soxada zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlaridan foydalanishning qanchalik keng imkoniyatlar yaratishi, uning aniqlik va tezkorlik bo'yicha yuqori natijalar bera olishi masalasi keng yoritilgan. Bunday zamonaviy va cheksiz imkoniyatga ega bo'lgan kompyuter dasturlaridan foydalanish orqali ko'plab hal qilinmagan muammolarni hal qilish va inson omilini kamaytirish, ulkan yutuqlarga erishish mukinligi xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** psixodiagnostika, axborot texnologiyalari, kompyuter dasturlari, kompyuter psixodiagnostikasi, operatsiyalar, mantiqiy xotira, texnik vostilar, ishonchtlilik.

## Comparative analysis of the application of information and communication technologies and traditional methods in the field of psychodiagnostics

Mamajonova Shaxzodaxon Yoqubjon qizi

Tashkent International University of Education, Tashkent, Uzbekistan

**Funding source for publication:** Tashkent International University of Education.

**Publisher's Note:** ActaEducation stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.



**Copyright:** © 2023 by the authors. Licensee ActaEducation, Tashkent, Uzbekistan. This article is an open access article distributed under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY-NC-ND) license (<https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/>).

**Abstract.** The article discusses the benefits of using modern information technology in the field of psychological assessment and methods for its practical application. As we all know, the use of technology and computer programs has become a necessity in various aspects of our daily lives. Based on this need, the article explores the potential benefits of utilizing modern technology and software in this area, as well as how it can lead to more accurate and efficient results. We are talking about the potential for solving complex problems, minimizing human error, and achieving significant success through the use of advanced software with its vast capabilities. The article emphasizes the importance of understanding and implementing these technologies in order to achieve optimal results.

**Keywords:** psychodiagnostics, information technology, computer programs, computer psychodiagnostics, operations, logical memory, technical means, reliability.

### Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 29 avgustdagi PQ-3245-son qarorini [1]

bajarish yuzasidan hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda axborot va jamoat xavfsizligi, shuningdek huquq-tartibotni ta'minlashga qaratilgan choratadbirlarni kuchaytirish, Davlat axborot tizimlari va resurslari, shuningdek, internet tarmog'i milliy segmentining

axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish qarorlarining qabul qilinishi yurtimizda axborot manbaalariga bo'lgan qaramliklarni oldini olish va axborot xavsizligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Yuqorida aytganimizdek, aniq fanlararo ishni talab qiladigan psixodiagnostikada kompyuter texnologiyalaridan foydalanish asta-sekin mustaqil tadqiqot sohasiga aylanib bormoqda. Bu sohada ilmiy izlanishlar olib borishdan asosiy maqsad-psixodiagnostika vositalarini, shu jumladan kompyuter psixodiagnostika usullarini yaratish, shuningdek, eksperimental psixologik ma'lumotlar bilan ishlashning tubdan yangi turlari va usullarini ishlab chiqishdir.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Psixologik test ma'lumotlarini kompyuterda qayta ishslash haqida birinchi qaydnoma 1930-yillarning boshlarigato'g'rikeladi. Uzoqvaqt davomida psixologik va (psixodiagnostik) tadqiqotlarda kompyuterlardan foydalanish faqat psixodiagnostik eksperiment jarayonida raqamli ma'lumotlarni qayta ishslash bilan chegaralangan. Rus ilmiy va psixologik adabiyotida birinchi marta "Kompyuter psixodiagnostikasi" atamasи SSSR Psixologlar jamiyatida "Kompyuter psixodiagnostikasi" bo'limining tashkilotchisi va raisi bo'lgan A.G.Shmelev tomonidan kiritilgan. Keyinchalik, ushbu yo'naliшhing mazmuni V.A.Dyuk va K.R.Chervinskaya monografiyalarida eng to'liq ochib berilgan. Kompyuter psixodiagnostikasiga V.M.Bekhterevo nomidagi Psixonevrologiya instituti klinik psixologiya laboratoriysi xodimlarining ishi katta hissa qo'shdi. Ingliz adabiyotida "kompyuter psixodiagnostikasi" atamasiga yaqin CAPA tushunchasi – kompyuter yordamida psixologik baholash, shuningdek, qisqa muddatli CT – kompyuter. Psixologik testga tutashgan pedagogik o'lchovlar sohasida kompyuterga asoslangan test va elektron baholash bilan bog'liq atamalar.

Respublikamizda psixodiagnostikaning rivojlanishiga M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, G.B.Shoumarov, E.G.G'oziyev, V.A.Tokareva, R.Z.Gaynutdinov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, Sh.R.Baratov, A.Jabborov, Z.T.Nishanova, Sh.A.Do'stmuhammedova, A.I.Rasulov, E.N.Sattorov, G.To'laganova kabi olimlar o'z hissalarini qo'shganlar [3, b.10].

### **Natijalar va muhokama**

Kompyuterlarning mantiqiy va hisoblash kuchi, shuningdek, ulkan xotirasи, tezligi va ishonchliигi psixologik testlar shakli, ko'p jihatdan, kompyuterlardan farqli o'laroq, insonning cheklangan

imkoniyatlari bilan belgilanadiganligini tushunishga imkon beradi. "Stimulyatsiya qurilmasi"- inson psixikasidagi cheklovlar psixologiyada test usulining cheklovlar sifatida harakat qildi va harakat qiladi, bu bir mutaxassisning faoliyatini boshqa mutaxassis tomonidan modellashtirish sifatida tushuniladi [2, b.15]. Kompyuterlar boshqa shaxs emas, balki texnik vositalar yordamida mutaxassis tomonidan olib boriladigan klinik va psixologik tadqiqotlarni taqlid qilish imkonini beradi. Kompyuterlarning hisoblash, mantiqiy operatsiyalar, xotira va tezlik imkoniyatlarining doimiy ravishda ortib borayotganini hisobga olgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, psixologik testlarning uslubiy apparatida mavjud bo'lgan va insonning cheklangan imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan cheklovlar olib tashlanmoqda. Kompyuter dasturi talaba psixologini eksperiment va ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha hech bo'limganda ularning rasmiylashtirilgan qismida katta hajmdagi ma'lumotlarni yodlash zaruratidan ozod qiladi. Shunday qilib, psixolog ushbu ish sifatining ma'lum bir kafolatlangan darajasida o'zlashtirilgan test bilan ishslashni tezroq boshlashi mumkin. Albatta, testda kam tajribaga ega bo'lgan holda, testning kompyuter versiyasidan foydalanganda xatolar ehtimoli kamroq bo'ladi. Psixologning shaxsiy tajribasi ortib borayotganligi sababli, olingen ma'lumotlarni sharlashning murakkabligi birinchi navbatda kompyuter talqini darajasiga yaqinlashishi va keyin, ehtimol, bu darajadan oshib ketishi mumkin.

Biz ushbu maqolamiz davomida psixodiagnostika sohasida axborot texnologiyalarining ilk paydo bo'lishi, rivojlanishini tahlil qilish masalasiga, shuningdek, kompyuter psixodiagnostikasiga va ushbu sohaning davomi sifatida bugungi kundagi Psixodiagnostika sohasidagi yutuq va kamchiliklar, Psixodiagnostika sohasida kompyuter dasturlaridan foydalanishning afzalliklari masalasiga alohida e'tibor berdik [3,b.19]. Biz psixodiagnostikada kompyuter texnologiyalaridan foydalanish talablarini ko'rib chiqdik. Psixodiagnostikada kompyuter dasturlari yordamida inson omili bilan bog'liq xatolar ehtimoli sezilarli darajada kamayishi, xususan: eksperimentatorning psiko-emotsional holati, uning tadqiqot natijalariga ko'proq yoki kamroq qiziqishi va boshqa taraflar misollar keltirildi [4, b.54]. Psixodiagnostikada axborot texnologiyalaridan foydalanish, tibbiy skrining vazifalari, kasbiy tanlov va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan ommaviy tekshiruvlarni o'tkazishga imkon berishi ham muhimligi aytib o'tildi. Shunday qilib, axborot texnologiyalarining psixodiagnostikaga kiritilishi, psixodiagnostikaning test usuli o'rtaсidagi ziddiyatni yo'q qiladi; test yondashuvining barcha mavjud afzalliklarini saqlab qolgan holda: obyektivlik,

eksperimentatorning subyektiv xususiyatlariga kamroq bog'liqlik, psixologlarning jamoaviy kasbiy tajribasining ishonchliligi va uning to'planishi yoritib berildi. Bu esa psixodiagnostika soxasini boshqa soxalar kabi imkoniyatlarini kengaytiradi va soxa mutaxassislari ishini birmuncha osonlashtiradi.

### **Xulosa**

Xulosa o'rniда shuni aytish mumkinki, agar soxasida biz inson omilidan emas, yaratilayotgan kompyuter dasturlaridan foydalansak, qanday afzalliliklariga ega ekanligi, aniqlik va optimallik darajasi va afzalliklari yuqoriligi o'z isbotini topmoqda. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turbdiki, psixodiagnostika usullarini ishlab chiqish va qo'llash uchun psixodiagnostik ma'lumotlarni rag'batlantirish, ro'yxatga olish va qayta ishslashning

texnik vositalarida katta ahamiyatga ega va bu inson omilidan ko'ra axborot texnologiyalaridan foydalanish kengroq imkoniyatlar eshigini ochishi hamda biz kutgan natijalarga erishish yo'lini yaqinlashtiradi.

### **Adabiyotlar / References**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 29 avgustdagи PF-3245-son Farmoni.
2. Бодалев А.А., Столин В.А. Общая психодиагностика. – Санкт-Петербург, 2000.
3. Hayitov O.E. Psixodiagnostika. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007.
4. Rasulov A.I. Psixodiagnostika. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2009.